


## Xorazm viloyatida ilm-fan

Bugun yurtimizda tarixiy davr boshlandi. Bu esa jamiyatimizning barcha jabhasida, jumladan, siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlari va albatta, ilm-fanda jadal rivojlanishni talab etyapti. Chunki ilm-fan hamda hayot o'rtasida shunday uzviy bog'liqlik mavjudki, agar u turmushimizga qancha ko'p xizmat qilsa, hayotimiz ham ilm-fanni bundanda ko'proq boyitadi. Prezidentimiz tomonidan bildirilgan ustuvor vazifalardan shuni chuqur his etish, anglash mumkinki, ilm-fan va u bilan muntazam shug'ullanayotganlar davlatimizning doimo e'tiboridadur.



### Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimi-tayanch doktorantura institutlarning asosiy ko'rsatkichlari

2020 - yil 1 - yanvar holatiga Xorazm viloyatida tayanch doktorantura institutlari mavjud tashkilotlar 2 tani tashkil qilib, ularda falsafa doktori darajasi izlanuvchilari 85 nafar (ayollar 32 nafar), qabul qilingan 32 nafar (ayollar 10 nafar) bitirgan falsafa doktori darajasi izlanuvchilari 10 (ayollar 4 nafar), jami bitiruvchilardan sonidan disertatsiya himoya qilganlar 2 nafar.

2019 - yil 1 - yanvar holatiga esa tayanch doktorantura institutlari mavjud tashkilotlar 2 tani tashkil qilib, ularda falsafa doktori darajasi izlanuvchilari 46 nafar (ayollar 16 nafar), qabul qilingan 22 nafar (ayollar 4 nafar) bitirgan falsafa doktori darajasi izlanuvchilari 10 (ayollar 2 nafar), jami bitiruvchilardan sonidan disertatsiya himoya qilganlar 3 nafar.



**Falsafa doktori  
darajasi  
izlanuvchi  
erkaklar 53  
nafar**


**Falsafa doktori  
darajasi  
izlanuvchi  
ayollar 32  
nafar**



## Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim-tizimi doktoranturalarining asosiy ko'rsatkichlari

2020 - yil 1 - yanvar holatiga doktoranturasi mavjud tashkilotlar 2 ta. Katta ilmiy xodimlar - izlanuvchilar 3 nafar (ayollar 1 nafar), qabul qilingan fan doktori izlanuvchilari 1 nafar, bitirgan fan doktori izlanuvchilari 2 nafar (ayollar 1 nafar).

O'tgan yilning shu davrida doktoranturasi mavjud tashkilotlar 2 ta. Katta ilmiy xodimlar - izlanuvchilar 2 nafar (ayollar 1 nafar), qabul qilingan fan doktori izlanuvchilari 1 nafar.



### Falsafa va fan doktori ilmiy darajasini olish uchun mustaqil ravishda izlanuvchi bitiruvchilar, doktorlik dissertatsiyalari himoyasi

2019 - yil viloyatimizda mustaqil izlanuvchilar (tadqiqotchilar) tomonidan falsafa doktori darajasiga 10 nafar, fan doktori darajasiga 7 nafar ilmiy muassasa (oliy ta'lim muassasasi) ilmiy kengashida himoya qilingan doktorlik dissertatsiyalari.

2018 - yilda mustaqil izlanuvchilar (tadqiqotchilar) tomonidan falsafa doktori darajasiga 7 nafar, fan doktori darajasiga 2 nafar ilmiy muassasa (oliy ta'lim muassasasi) ilmiy kengashida himoya qilingan doktorlik dissertatsiyalari.

	Mustaqil izlanuvchilar	Hisobot yilidan avval oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim beruvchi institutda tayyorgarlikdan o'tgan shaxslar tomonidan	Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutini hisobot yilida, o'z muddatida dissertatsiya himoya qilib tamomlagan shaxslar tomonidan
Jami	17	1	3
Tabiiy fanlar	5	-	2
Ijtimoiy fanlar	3	-	-
Gumanitar fanlar	9	1	1

## *Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar, birlik*



Xorazm viloyatida 2019 - yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar 7 ta, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar 1 ta. Ilmiy tadqiqot bajargan tashkilotlar 5 ta, ilmiy texnik xizmat bajargan tashkilotlar 2 ta, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar 1 ta.

2018 - yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar 7 ta, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar 1 ta. Ilmiy tadqiqot bajargan tashkilotlar 6 ta, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar 1 ta, tajribaviy nusxa-namunalarni, partiyalar, buyumlar tayyorlash tashkiloti 1 ta, ilmiy texnik xizmat bajargan tashkilot 1 ta.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha	Jami, birlik	Shu jumladan: kichik korxonalar va mikrofirmalar	Ilmiy tadqiqotlar	Shu jumladan: fundamental tadqiqotlar	Ilmiy-texnik xizmatlar	Shu jumladan: kichik korxonalar va mikrofirmalar
Kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	3	1	2		1	1
Ta'lim	3		2	1	1	
Sa'nat, ko'ngil ochish va dam olish	1		1			
Sektorlar kesimida	Jami, birlik	Shu jumladan: kichik korxonalar va mikrofirmalar	Ilmiy tadqiqotlar	Shu jumladan: fundamental tadqiqotlar	Ilmiy-texnik xizmatlar	Shu jumladan: kichik korxonalar va mikrofirmalar
Davlat sektori	4	1	3		1	1
Oliy ta'lim sektori	3		2	1	1	


## Tashkilotlar tomonidan bajarilgan tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar xajmi, mln so'm

Xorazm viloyatida 2019 - yilda tashkilotlar tomonidan bajarilgan tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar xajmi 4933,1 mln so'mni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davrida tashkilotlar tomonidan bajarilgan tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar xajmi 3367,2 mln so'mni tashkil qilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha	Jami, birlik	Shu jumladan: kichik korxonalar va mikrofirmalar	Ilmiy tadqiqotlar	Shu jumladan: fundamental tadqiqotlar	Ilmiy-texnik xizmatlar	Shu jumladan: kichik korxonalar va mikrofirmalar
Kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	2430,0	874,6	1555,4		874,6	874,6
Ta'lim	1682,3		1592,8	798,3	89,5	
Sa'nat, ko'ngil ochish va dam olish	820,8		820,8			
Sektorlar kesimida	Jami, birlik	Shu jumladan: kichik korxonalar va mikrofirmalar	Ilmiy tadqiqotlar	Shu jumladan: fundamental tadqiqotlar	Ilmiy-texnik xizmatlar	Shu jumladan: kichik korxonalar va mikrofirmalar
Davlat sektori	3250,8	874,6	2376,2		874,6	874,6
Oliy ta'lim sektori	1682,3		1592,8	798,3	89,5	

## Hududlar kesimida tashkilotlar tomonidan bajarilgan tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar xajmi, mln so'm



## Fan sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar, mln so'm

Viloyatimizda 2018 - yilda tashkilotlar tomonidan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga 3367,2 mln so'm xarajat qilingan.

2019 - yilda tashkilotlar tomonidan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga 4352,9 mln so'm xarajat qilindi. Bu ko'rsatkich 2018 - yilga qaraganda 29,3% ga oshgan.



## Fan sohalari bo'yicha iqtisodiy faoliyat turlari va sektorlar kesimida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar


2019 - yilda fan sohalari bo'yicha tashkilotlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlarning asosiy qismi tabiiy fanlar (33,7%), gumanitar fanlar (30,8%) va tibbiyot fanlar (14,2%) hissasiga to'g'ri keldi.

mln so'm

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha	Tabiiy fanlar	Texnika fanlari	Tibbiyot fanlari	Qishloq xo'jaligi fanlari	Ijtimoiy fanlar	Gumanitar fanlar
Kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	984,5	351,9	-	147,6	70,1	295,7
Ta'lim	482,7	93,1	619,7	34,1	227,5	225,2
Sa'nat, ko'ngil ochish va dam olish	-	-	-	-	-	820,8
Sektorlar kesimida	Tabiiy fanlar	Texnika fanlari	Tibbiyot fanlari	Qishloq xo'jaligi fanlari	Ijtimoiy fanlar	Gumanitar fanlar
Davlat sektori	984,5	351,9	-	147,6	70,1	1116,5
Oliy ta'lim sektori	482,7	93,1	619,7	34,1	227,5	225,2

## Tashkilotlar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar tarkibi

2019 - yilda tashkilotlar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga joriy xarajatlar 4352,9 mln so'mni tashkil etib, 2018 - yilga nisbatan 29,3% (985,7 mln so'm) ga oshdi, shundan mehnatga haq to'lash 35,7% (879,3 mln so'm) ga, ijtimoiy sug'urta ajratmalari 28,2% (162,8 mln so'm) ga, asosiy vosita va nomoddiy aktivlar eskirishi xarajatlari 3,1% (1,1 mln so'm) ga oshdi, asbob-uskunalarga xarajatlari esa 1,2% (1,3 mln so'm) ga kamaydi.



## Tashkilotlarning o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlarni moliyalashtirish manbalari

2018 yilda bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishga asosan jami davlat byudjeti mablag'lari (jami xarajatlarning 69,5%) jalb qilingan bo'lsa, 2019 yilda ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda davlat byudjeti mablag'laridan (74,3%), buyurtmachi mablag'laridan (18,9%) va o'z mablag'laridan (6,8%) foydalanilmoqda.


	mln so'm						
	Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha	Kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	Ta'lim	Sa'nat, ko'ngil ochish va dam olish	Sektorlar kesimida	Davlat sektori	Oliy ta'lim sektori
Jami xarajatlar	4352,9	1849,8	1682,3	820,8	4352,9	2670,6	1682,3
Jami davlat byudjeti mablag'lari	3237,7	1555,4	1682,3	-	3237,7	1555,4	1682,3
O'z mablag'lari	820,8	-	-	-	820,8	820,8	-
Buyurtmachi mablag'lari	294,4	294,4	-	820,8	294,4	294,4	-

## Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan ilmiy xodimlar (2016-2019 yillar), kishi

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil
Ilmiy xodimlar – jami (oliy ta’lim muassasalarining ilmiy-pedagogik xodimlarini qo’shgan holda)	885	1013	1059	1202
Shu jumladan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tadqiqotchi mutaxassislar	805	936	981	1125
Shu jumladan:				
Ulardan ilmiy darajaga ega bo’lganlar :				
Fan doktori	27	33	29	39
Fan nomzodi	189	206	198	207
Falsafa doktori	-	-	30	39

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bilan band bo’lgan tadqiqotchi mutaxassislar soni 2019 - yilda 2016 yilga nisbatan 71,6 % oshdi va 1125 nafarni tashkil etdi.

## 2019 - yilda fan sohalari bo’yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tadqiqotchi-mutaxassislar soni



2019 - yilda tadqiqotchi-mutaxassislarning 23,6% (266 nafar) ijtimoiy fanlar sohasida, 24,8% (279 nafar) gumanitar fanlar sohasida, 24,3% (273 nafar) tabiiy fanlar sohasida, 4,4% (50 nafar) texnika, tibbiyot fanlarida 18,9% (213 nafar), qishloq xo‘jaligi fanlari sohasida esa 3,9% (44 nafar) ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.